



ISSN 2181-1709 (P)
ISSN 2181-1717 (E)

2024/№3

ТА’LIM VA INNOVATION TADQIQOTLAR

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

Atakov I. Maktablarda “Tarbiya” fani o‘qitishda innovatsion yondashuvlar nazariyasi va amaliyoti	122
Azimova G. B. Talabalarning o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodlar	128
Amonova N. M. Talabalarda aqliy kompetentlikni takomillashtirish yo‘nalishlari	132
Boymirov Sh. T., Zamonova Sh. S. Didaktik tamoyillar asosida fizikani o‘qitish	136
Байбаева М. Х., Юлдашева Х. К. Квадиметрическое обеспечение как фактор развития образовательных систем в высшей школе	140
Egamov M.X. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika elementlarini o‘qitishning zamonaviy didaktik modellari va usullari	144
Hasanova N. N. Sabzavotchilikdagi islohotlar va yangi navlarning yaratilish tarixi	151
Ibragimov A. A., Kurbanova Sh. M. O‘quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun masofaviy ta’lim elementlarini qo‘llash usullari	154
Inoyatov A. Sh. Keksa yoshdagi kishilarning salomatligi va psixofiziologik xususiyatlari	161
Isakulova N. Bojxona sohasiga oid terminlarni o‘qitishda axborotli va amaliy loyihalardan foydalanish	170
Jabborova M. A. Mamlakatimiz olimlari tomonidan talabalar akademik o‘zlashtirishi determinantlarini tadqiq etilishi	174
Jabborova O. M. Boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirishning innovatsion mexanizmlari	178
Mardankulov J. A. O‘quvchilarni matematika fanidan qiyin misol va masalalarni yechishga tayyorlash	184
Mirzayev Sh. Oliy o‘quv yurtlarida ta’lim me’yoriy hujjatlari bilan ishslashga innovatsion yondashuvlar	188
Normatova M. B. Kursantlar lingvistikasini shakllantirishda strategik kompetensiyasini shakllantirish muammosi	193
Ozodova M. H. Boshlang‘ich sinflarda muloqot ko‘nikmasini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlaridan foydalanish	197
Po‘latov L. A. Ta’lim tizimida faol talaba shaxsining intellektual xususiyatlarini rivojlantirishning ahamiyati	201
Pulatova M. K. Maktab o‘qituvchilarida o‘quvchilarni o‘quv strategiyalariga (learning strategies) o‘rgatish ko‘nikmalarini rivojlantirish	206
Karimova N. X. Kasbiy-pedagogik faoliyatga talabalarni moslashtirish jarayoniga kreativ yondashuv tamoyillari	210
Saydullaev D. Ya. Talabalarda ilmiy dunyoqrashni shakllantirish muammosining ijtimoiy-psixologik adabiyotlarda yoritilishi	215
Teshayev A.T. “O‘zbekiston tarixi” fanini metodik takomillashtirish asosida talabalarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish	219
Умарова Г. А. Принципы совершенствования профессиональных компетенций будущих инженеров	225
Xasanova G. I. O‘qituvchilarining pedagogik qobiliyatini takomillashtirishning didaktik hususiyatlari	230
Xujaqulov A.X. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha mustaqil ishlarni tashkil etish metodikasi	234
Xujayarova N. S. Talabalarning individual ta’lim traektoriyasini amalga oshirishda kasbiy kompetensiyaning o‘rni	238
Yuldasheva M. E. Bo‘lajak pedagoglarda kommunikativ va kommunikabellik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	241
Yunusova X. Sh. Ta’lim tizimi uchun pedagoglarni tayyorlash-dolzarb muammo sifatida	245
Закирова М. Р. Исследование уровня сформированности креативной информационно-коммуникационной компетентности директоров общеобразовательных школ в республике Узбекистан	249
Захидова Д. А. Подготовка педагогов дошкольного образования к оздоровительно-образовательной работе с детьми	256

BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI

Jabborova Onaxon Mannapovna,

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasini dotsenti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.036>

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirishning innovatsion mexanizmlari masalasi to‘g‘risida fikr yuritilgan va muallifning individual yondashuvlari taqdim qilingan. Bunda boshlang‘ich ta’limning an‘anaviy metodikalari tajribalaridan foydalangan holda ularni takomillashtirish, yangi g‘oyalar va yondashuvlar bilan boyitish asosida innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqish asoslab ko‘rsatilgan. Chunki bugungi kunda globallashuv sharoitida boshlang‘ich ta’limning metodikasini takomillashtirish aynan innovatsion rivojlanish jarayoni bilan zaruriyatga aylanib bormoqda. Shu jihatdan O‘zbekistonda barpo etilayotgan innovatsion va yangi jamiyat sharoitida boshlang‘ich ta’limning sifat ko‘rsatkichlarini yuksaltirish hamda bu jarayonda boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda.

Tayanch tushunchalar: boshlang‘ichta’lim, metodika va yondashuv, takomillashtirish va rivojlantirish, innovatsiya va mexanizm, tajriba va malaka, innovatsion jamiyat va ehtiyoj, takomillashtirish asoslari, metodik yangilik, individual munosabat, kommunikativ va kretisizm, bilimdonlik va tajriba, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini va o‘quvchilarini, nazariya va amaliyot uyg‘unligi.

Аннотация: в статье рассматривается вопрос инновационных механизмов совершенствования методики начального образования и представлены отдельные подходы автора. При этом демонстрируется развитие инновационных механизмов на основе их совершенствования, обогащения новыми идеями и подходами с использованием опыта традиционных методов начала. Потому что сегодня, в условиях глобализации, совершенствование методики начального образования становится необходимостью в процессе инновационной революции. В связи с этим особое внимание уделяется вопросам улучшения показателей качества начального образования и совершенствования методики начального образования в условиях складывающегося в Узбекистане инновационного и нового общества.

Основные понятия: начальное образование, методология и подход, совершенствование и развитие, инновации и механизм, опыт и компетентность, инновационное общество и спрос, основы совершенствования, методические инновации, индивидуальное отношение, коммуникативность и критичность, знания и опыт, учителя начальных классов и учащиеся внутренний класс, сочетание теории и практики

Annotation: the article discusses the issue of innovative mechanisms for improving the primary education methodology and presents the individual approaches of the author. In this, the development of innovative mechanisms based on their improvement, enrichment with new ideas and approaches, using the experience of traditional methods of the beginning, is demonstrated. Because today, in the conditions of globalization, the improvement of the methodology of primary education is becoming a necessity with the process of innovative revolution. In this regard, special attention is being paid to the issues of improving the quality indicators of primary education and improving the methodology of primary education in the conditions of the innovative and new society being established in Uzbekistan.

Basic concepts: primary education, methodology and approach, improvement and development, innovation and mechanism, experience and competence, innovative society and demand, basis of improvement, methodical innovation, individual attitude, communicative and criticalism, knowledge and experience, primary teachers and students of the inner classroom, the combination of theory and practice.

KIRISH. “O‘zbekiston-2030” strategiyasining eng muhim masalalaridan biri boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish va ta’limning mazkur bosqichida sifat ko‘rsatkichlariga erishish vazifasidir [1]. Bu vazifalar ko‘lamida quyidagi ikki holatga e’tibor berish kerak:

- a) boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish;
- b) boshlang‘ich ta’limda sifat ko‘rsatkichlariga erishish.

Shu sababli mazkur vazifaning ijrosida eng avvalo boshlang‘ich ta’lim metodikasi, nazariyasi va texnologiyasi bo‘lgan keyingi 5-7 yil davomidagi innovatsiyalarni hisobga olish, ularni tahlil qilish, yutuqlar va kamchiliklarni namoyon etish muhim hisoblanadi. Biz bu o‘rinda mazkur masalalarning eng muhim yo‘nalishlaridan biri keyingi yillarda boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirishning innovatsion mexanizmlari tahliliga umumiy tarzda e’tiboringizni tortamiz.

Muammoning o‘rganilishi. Dunyo miqyosida boshlang‘ich ta’lim metodikasini davr talablari asosida takomillashtirib borish muammolari pedagog olimlar tomonidan tadqiq etib kelinmoqda. Bunda Yan Amos Komenskiyning metodikani takomillashtirishga doir didaktik yondashuvlari, Konstantin Dmitrievich Ushinskiyning ta’lim metodikalarida xalq ruhining aks ettirishi to‘g‘risidagi metodikasi, Albert Kamyuning ta’lim oluvchilarning erkinlik yondashuvlari haqidagi qarashlari samaradorligi bilan diqqatni tortadi. O‘zbekiston pedagog mutafakkirlari va olimlari tomonidan ham boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirishga doir o‘ziga xos yondashuvlari bayon etib kelinmoqda. Bunda ayniqsa, Abu Ali Ibn Sinoning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ruhiyati xususiyatlarini hisobga olish, Mahmudxo‘ja Behbudiyning boshlang‘ich ta’limda yangi g‘oyalarni birlamchi bilish metodikasi hamda zamonaviy pedagog olimlardan Shukurullo Mardonovning zamonaviy jamiyatda boshlang‘ich ta’lim metodikasi didaktik ta’minotini ishlab chiqish, Xolboy Ibragimovning boshlang‘ich ta’lim metodikasida ijtimoiy ruhning ustuvorligi, Roxatoy Safarovaning boshlang‘ich ta’limda o‘quv fanlari integratsiyasi to‘g‘risidagi metodikalari samaradorligi bilan diqqatni tortadi. Dunyo miqyosidagi va milliy pedagogik tajribadagi bunday yondashuvlardan kelib chiqgan holda, hozirgi zamon boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirishning innovatsion mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

METODLAR. Muammoni tahlil qilishda manbalarni o‘rganish, xulosa chiqarish, sintez va analiz, individual yondashuv, induktiv munosabat, qiyosiy-tipologik taxlil metodlaridan foydalanildi. Bunda asosiye tibor mualliflarning individual yondashuviga qaratildi. Buning natijasida metodik yondashuvning erkinlik tamoyillariga asoslanish imkoniyatiga ega bo‘lindi. Qo‘ylgan muammo taxlilida mualliflarning ilmiy va pedagogik tajribalarini umumillashtirishga xarakat qilindi.

NATIJALAR. Boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirishning innovatsion mexanizmlarini ishlab chiqish mamlakatimizda pedagogik va ijtimoiy ehtiyojlar majmuiga kiradi. Shu ma’noda bu o‘rinda ana shu masalaning tahliliga e’tiboringizni tortamiz.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirishning innovatsion integratsiyasi mexanizmi. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi bugungi kunda mazkur ta’lim bosqichining mazmuni, o‘qitish metodikasi, ta’lim texnologiyalari va o‘zlashtirish jarayonining yangilanish asoslarini o‘zida mujassam etmoqda[2]. Shu jihatdan bugungi kunda “metodika” tushunchasini keng ma’noda qo‘llash va tushunish taqozo etilmoqda. Masalaga bunday yondashuv boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirishning innovatsion integratsiyasi masalasini to‘g‘ri idrok etish imkonini beradi.

Innovatsiya – yangicha yondashuv, yangicha mazmun, yangicha yo‘nalish, yangicha metodikaga asoslanish va zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish ekanligi ma’lum[3]. Shu ma’noda bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirishning innovatsiyaga asoslangan integratsiyasi tarkib topdi. Bu innovatsion integratsiya omillari quydagilardan iborat:

boshlang‘ich ta’lim o‘quv reja, dastur va mazmunining o‘zaro bog‘liqlikdagi yangi avlod nusxalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda;

boshlang‘ich ta’limda o‘quv fanlarini xalqaro miqyosda e’tirof etilgan aniq, tabiiy va gumanitar fanlar tarkibiga bo‘lib o‘qitish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi;

turkumlashgan o‘quv fanlarining mavzulari o‘rtasidagi integratsiya va hamkorlik mexanizmlari butunlay yangi asoslarda tarkib toptirildi;

yangi avlod darsliklari, o‘quv qo‘llanmalari va o‘qituvchi kitobi, ularning multimediali ilovalari hamda mashg‘ulot jihozlari xalqaro ta’lim dasturi qoidalari asosida tayyorlanib, milliy tamoyillarga asosan amaliyotga kiritildi;

mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayoniga PISA, PIRLS, TIMSS va STEAM kabi xalqaro ta’lim dasturlarining talablari ilk bor joriy etildi;

o‘zbek milliy boshlang‘ich ta’lim tajribasining dunyo mamlakatlari boshlang‘ich ta’lim tajribalariga moslashuvi va o‘zaro tajriba almashinuvi yo‘lga qo‘yildi.

Bularning barchasi boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirishning innovatsion integratsiyasi asoslarini tashkil qiladi. Bu mexanizmlar vositasida boshlang‘ich ta’limning metodikasida sifat ko‘rsatkichlarining namoyon bo‘lishi yuzaga kela boshladidi. Bunday qisqa muddatli tajriba dunyo mamlakatlari boshlang‘ich ta’lim jarayonida kam kuzatiladi. Shu sababli 2026-yil yakuniga qadar boshlang‘ich ta’limning sifat ko‘rsatkichlari o‘z natijasini berishi idrok etilmoqda. Buning natijasida mamlakatimiz boshlang‘ich ta’limi dunyo mamlakatlari boshlang‘ich ta’lim tajribasida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lishi kutilayotganligini eslatib o‘tish joiz. Mazkur masalalarini tahlil qilish, yutuqlar va kamchiliklarning qiyosiy tadqiqotini amalga oshirish dolzarb bo‘lib turibdi. Buning natijasida bizningcha, boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirishning innovatsion integratsiya mexanizmidan foydalanish yo‘nalishlarini ishlab chiqishga erishiladi.

Boshlang‘ich ta’lim mazmunining takomillashuvi va yangi o‘quv adabiyotlarining tarkib topishi mexanizmi. Hozirgi zamon Yangi O‘zbekiston boshlang‘ich ta’limining sifat ko‘rsatkichlariiga erishishning muhim omillaridan biri mazkur ta’lim bosqichining metodikasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan mexanizmlarni aniq belgilab olish bilan bog‘liqdir. Ana shunday muhim mexanizmlardan biri boshlang‘ich ta’lim mazmunining takomillashganligidir. O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020-yil 23-sentyabr) 9-moddasida mamlakatimizda boshlang‘ich ta’limning mazmuni va vazifalari quyidagicha belgilangan: “ta’lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirish”. Ushbu muhim vazifalar qatorida bugungi kunda boshlang‘ich ta’limning mazmuni va vazifasini quyidagilar bilan boyitish ehtiyoji paydo bo‘lganligini ta’kidlab o‘tish lozim:

a) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini umumiy o‘rta ta’lim bosqichi va Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari hamda ijodiy maktablari ta’lim turlariga ta’lim, tarbiya va faoliyat jihatidan tayyorlash;

b) boshlang‘ich ta’limning maktabgacha va keyingi ta’lim turlari bilan bog‘lovchi vazifasini belgilab qo‘yish.

Bu vazifa va mazmun boshlang‘ich ta’lim metodikasining takomillashuvidagi muhim mexanizmlardan hisoblanishi namoyon bo‘ladi. Mazkur masalalarning ilmiy, nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirishning navbatdagi muhim mexanizmlaridan biri yangi o‘quv fanlarining tarkib topganligidir. Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini uchun o‘qitilayotgan bu yangi o‘quv adabiyotlarining asosiyalarini quyidagilardan iborat:

a) “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” yangi o‘quv fani[4];

b) “Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya va integratsiya”[5];

d) “Boshlang‘ich ta’limda Tarbiya fani”[6];

Mazkur yangi o‘quv fanlari majburiy (mutaxassislik) fanlari hisoblanadi. Bundan tashqari, oliy pedagogik ta’lim muassasalariga boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha “Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalar”, “Boshlang‘ich ta’limda konfliktologiya” kabi yangi tanlov fanlari o‘qitila boshlaganligini eslatib o‘tish joiz. Shu ma’noda boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirishda mazkur yangi o‘quv fanlari va adabiyotlarining muhim mexanizmlardan biri ekanligi idrok etiladi.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirishning ta’lim mazmuni va o‘quv fanlariga oid ushbu innovatsion yangilanishlar maxsus tadqiq etilishi, ularning bu ta’lim bosqichi rivojidagi o‘rni belgilanishi va innovatsion jamiyat sharoitida bunday yangilanishlardan foydalanishning maqbul metodikalarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirishning innovatsion diagnostika mexanizmi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida yuzaga kelgan yangilanishlar, uning metodikasidagi o‘zgarishlar, yangi avlod boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tayyorlanayotganligi va amaliy faoliyatdagagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyat ko‘lami masalalarini pedagogik diagnostika qilish tarkib topa boshladidi. Bunga qadar boshlang‘ich ta’lim jarayoni umumiy pedagogik diagnostika tarkibi sifatida o‘rganilib baholangan. Bugun esa mazkur ta’lim bosqichi asosan boshlang‘ich ta’lim pedagogik diagnostikasi nuqtai nazaridan baholanishi dolzarb masalaga aylandi[7]. Shu ma’noda mazkur diagnostika jarayonini amalga oshirishda quyidagi omillarga tayanish tarkib topa boshladidi:

a) boshlang‘ich ta’lim jarayonini milliy pedagogik tajriba asosida baholash;

b) boshlang‘ich ta’lim jarayonini diagnostika qilishda xalqaro ta’lim dasturlari qoidalarini hisobga

olish;

d) boshlang‘ich ta’lim jarayonini diagnostik o‘rganishda xorijiy mamlakatlarning mazkur masala bo‘yicha tajribalaridan foydalanish;

e) boshlang‘ich ta’lim jarayonini maktablararo, hududlar va mamlakat miqyosida bosqichli diagnostika qilib borish.

Bu omillar asosida boshlang‘ich ta’lim jarayonini diagnostika qilish muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi. Diagnostika jarayonida yutuqlar tahlili, kamchiliklar sabablari va boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini ishlab chiqish birlamchi vazifa sifatida qaralayotganligini eslatib o‘tish joiz.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirishning innovatsion diagnostika mexanizmida quyidagilarning faoliyatni baholanishi tarkib topa boshladi:

a) boshlang‘ich ta’limning sharoiti, muhiti va uni amalga oshirishning zamonaviy imkoniyatlari;

b) boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlarining o‘zaro integratsiyalashuvi va individuallashuvi;

c) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirganlik darajasi;

d) boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mahorat darajasi;

f) boshlang‘ich ta’lim manfaatdorlarining (ota-onalar, ta’limning keyingi turlari vakillari kabilarning) mazkur ta’lim bosqichidan qoniqish darajasi;

g) boshlang‘ich ta’limning xalqaro hamkorlik darajasi.

Bularning barchasi boshlang‘ich ta’lim metodikasining innovatsion diagnostikasida yangicha yondashuv hisoblanadi. Shu sababli diagnostika omili biz tomonimizdan boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirishning innovatsion mexanizmlaridan biri sifatida qabul qilinmoqda.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirishning tarkib topgan innovatsion mexanizmlarini tadqiq etish va ulardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish muhim masala bo‘lib turibdi. Mazkur masala bo‘yicha ilmiy, nazariy va metodik jihatdan yaxlit tadqiqot yaratish ehtiyoji mavjud.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirishning innovatsion mexanizmlari ta’lim jarayonini kuchaytirish va unda sifatli o‘zlashtirishga erishish imkonini beradi. Shu jihatdan bu borada quyidagi xulosalarga kelish mumkin: boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirishning mazkur aniq innovatsion mexanizmlari muhim xususiyatlarga egaligi bilan diqqatni tortadi. Bularning barchasi tadqiq etilishi muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ko‘nikmalarini baholash, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kompetensiyalarini takomillashtirish va amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mahoratini yuksaltirish, boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning innovatsion metodologiyasi va istiqbolli yo‘nalishlari bo‘yicha tahlillarni amalga oshirish ham dolzarb ekanligini eslatib o‘tish joiz. Mazkur masalalar oliy pedagogik ta’lim jarayonida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu o‘rinda tavsiyalar sifatida quyidagilarni taqdim etish maqsadga muvofiq bo‘ladi: oliy pedagogik ta’lim jarayonida boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirishning innovatsion mexanizmlari muammosini muntazam tadqiq etib borish, tadqiqot natijalarini pedagogik tajriba-sinovdan o‘tkazish va ularning bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini hamda amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tomonidan o‘zlashtirilib borilishiga erishish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning natijasida boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirib borishning keng imkoniyatlariga ega bo‘linadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

“O‘zbekiston-2030” strategiyasi. // www.ziynet.uz

Jabborova O.M. Boshlang‘ich ta’lim metodikasining yangi nazariy masalalari. – Toshkent, 2023

Mardonov Sh.Q. Pedagogika fanidan o‘qitishning elektron-modulli didaktik ta’minotini ishlab chiqish texnologiyasi. – Toshkent, 2021

Jabborova O., Umarova Z., Boboxo‘jayeva L. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. – Toshkent, 2021

Jabborova O., Umarova Z. Boshlang‘ich ta’limda Tarbiya fanini o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2022

Jabborova O., Umarova Z. Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi. – Toshkent, 2023.

O‘zbek pedagogik ensiklopediyasi. 1-2 том. – Toshkent, 2007